

## 2018 yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


### RAQAMLAR

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **41,3 foizga** ko'paydi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **- 101,8 foiz**.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish ha-jmidagi ulushi - **27,5 foiz**.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a 2018 yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 232,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bolib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,3 foizni tashkil qildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda - 144,2 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 81,7 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 124,2 foizga, (o'sishiga qo'shgan hissasi 9,7 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatda - 132,5 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 7,7 punkt) o'sishi kuzatildi.

### 2018 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash
- qayta ishlash sanoati
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,4 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,2 foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir (lignite) qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,7 martaga, **tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash** sanoatining boshqa tarmoqlari 107,3 foizga oshganligini, xom neft va tabiiy gaz qazib olish 90,8 foizga kamayganligini kuzatish mumkin.

## **2018 yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi**

2018

### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 189,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 144,2 foizni tashkil etdi.

O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,1 foizga, tekstil mahsulotlari chiqarish hajmi 2,9 martaga oshganligini va kiyim-kechak, yaxna ichimliklar ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

### **Yanvar oyida Ishlab chiqarilgan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2018 y. yanvar	2017 y. yanvar	2017 y. yanvarga nisbatan, foizda
Xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinslardan olingan neft - ming t	7,3	6,7	108,3
Toshko'mir - ming t	18,3	18,3	100,0
Tozalangan paxta yog'i va uning fraktsiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari) - t	1694	1694	100,0
Paxta yog'i (qadoqlanmagan) - t	1921	1921	100,0
Bug'doy uni - t	8689	8481	102,5
Gazoyli - t	3,2	1,1	297,9
Neft bitumi - ming t	8,2	4,7	172,6
Aroq - ming l 100%li spirit	199,9	12,0	16,6 m

### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash***


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132,5 foizni tashkil etdi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 187,7 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar – 131,1 foizga o'sganligi kuzatildi.


## 2018 yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 63,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 1,8 foizga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 27,5 foizni tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 56,7 %dan 2018 yilning yanvar oyida 58,8 %ga, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 39,3 %dan 40,5 %ga oshishi kuzatilmoqda.

### Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



## 2018 yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,4 foizga bajarildi. O'z navbatida, kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 31,4 foizni tashkil etmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda qariyb 1700 taga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 355 tasi Termiz shahrida, 184 tasi Denov, 130 tasi Termiz, 127 tasi Jarqo'rg'on, 116 tasi Qumqo'rg'on, 116 tasi Uzun, 115 tasi Boysun, 107 tasi Sariosiyo, 105 tasi Sho'rchi, 100 tasi Sherobod, 63 tasi Angor, 59 tasi Muzrabot, 58 tasi Oltinsoy, 45 tasi Qiziriq tumanarida joylashgan.

### 2018 yil 1 fevral holatiga ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Joriy yilning yanvar oyi davomida viloyatda 53 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 20,8 % Termiz shahri, 13,2 % Denov, 13,2 % Sho'rchi, 11,3 % Termiz tumanlariga to'g'ri keladi.

Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Turanazarov

Aloqa telefoni: (0376) 223-07-24